

INGLIZ VA O'ZBEK OLIMLARINING PERIFRAZALARNING TASNIFI BO'YICHA
TADQIQOTLARI.

Allayorova Shaxnoza Primqulovna

JDPU, Stajyor-o'qituvchi

Abstract: *The research conducted by linguists on the functions of periphrasis in the Uzbek language reveals that one of the most significant tasks of this stylistic structure is to maintain avoidance of repetition and expand the scope by expressing ideas through various expressions. Authors use periphrasis to present or describe information effectively by utilizing synonyms or descriptive elements. Furthermore, it is possible to use periphrasis to present information in an appealing and engaging manner by describing words or adding characteristic attributes to the object, serving to further enhance the periphrasis method and make it more captivating. In creating or employing the stylistic device of periphrasis, one can benefit from both traditional and innovative approaches. Moreover, utilizing periphrasis previously prepared or developed in a traditional way by the writer or author is also possible in this context.*

Annotatsiya: *Tilshunos olimlarning perifraza funksiyalari bo'yicha olib borgan tadqiqotlari natijasida ma'lum bo'ladiki, bu stilistik qurilmaning eng muhim vazifalaridan biri takrorlashdan saqlanish va gapni turli iboralar bilan boyitishdir. Yozuvchilar o'z asarlarida leksikaning sinonimik variantlari yordamida berilayotgan yoki tasvirlayotgan ma'lumotni jozibador usulda yetkazish uchun perifrazalardan foydalanishadi. Bundan tashqari, so'zlarni tavsiflovchi jumlar bilan ifodalash mumkin yoki ularning sifatleri obyektga qo'shimcha xarakterli sifatlar berib, perifraza usulini yanada jozibador va maftunkor bo'lishiga xizmat qiladi. Perifraza stilistik qurilmasini yartaishda yoki qo'llashda asl va an'anaviy turlardan foydalansa bo'ladi. Bunda asl turi yozuvchi yoki muallif tomonidan yartilgan holda, an'anaviy turda avvaldan tayyor bo'lgan perifrazalardan foydalanish mumkin.*

Key words: *atoqli otlar, apellyatsiya perifrasi, toponimlar, asl perifraza, denotativ semantik belgilar, metonimik va metaforik perifrazalar.*

Zamonaviy tilshunoslikda perifraza tushunchasi an'anaviy ravishda eng murakkab hodisa va stilistik vositalardan biri sifatida tushuniladi. Uning asosiy maqsadi obyektning atributlari va sifatlarini aniqlab berish va uni aylanma so'zlar bilan yetkazishdir. Tadqiqot davrida parafrazaning turli xil variantlari tahlil qilindi, ularni ba'zi mezonlarga ko'ra tasniflash mumkin.

L.V. Grehneva perifrazaga oid obyektlarining perifraza vositalarini tasniflaydi, mavzuga oid tipologiya doirasida ular quyidagilarni tashkil qiladi:

- Atoqli otlar - odamlarning ismlari / familiyalari, shuningdek to'qima ismlar, uy hayvonlari laqablari (apellyatsiya perifrasi).

Misol uchun. J.K.Rowlingni butun dunyoga mashhur asari Gari Potterda quyidagi misollarni ko'rimishimiz mumkin: Bu narsa Dombldorning sevimli insoniga yolg'on xavfsizlik hissini berdi. Bu misoldan parafrazani inson ismiga qo'llanganini bilsak bo'ladi. Bu misralarning ma'nosini "Harry Potter" filmi orqali bilsak ham bo'ladi, chunki ushbu filmida Dombldorning sevimli o'quvchisi Harry Potter ekanligini hamma bilsa kerak. Harry Potter deb to'g'ridan to'g'ri aytish o'rniga uni perifraza qilayabdi va o'quvchini o'ziga jalb qilib mantiqiy fikrlashga majbur qilayabdi.

- geografik joy nomlari (toponimlar)

"Ikkinchi Jahon urushida Non shahriga juda ham ko'plab yetim qolgan bolalar olib kelindi"²² Ushbu misolda geografik joy perifraza sitilistik qurilma sifatida ishlatilgan. Bunda "Non shahri" deganda Toshkent shahri nazarda tutayotganini anglanishi mumkin. Toshkent ikkinchi jahon urushida yetim qolgan bolalarni o'z g'amxo'rligiga olganligi tufayli, uning ikkinchi nomi "Non shahri" deb nomlangan. Yoki, "She moved to the Big Apple after she graduated". Ushbu gapda "Big Apple" iborasi Nyu York shahrini nazarda tutib aytilyabdi. "Big Apple" (Katta Olma) so'zini eshitgan vaqtida, Nyu York haqida gap ketayotganini dunyoning ko'plab aholisi bilsa kerak.

I.R.Galperin tadqiqotining asosiy qismi parafraza iboralarni asl va an'anaviylarga ajratadi²³.

- asl perifraza (muallif, yozuvchi tomonidan ixtiro qilingan)

Misol uchun: Men o'rik mevasini mevalar shohi deb hisoblayman.

-an'anaviy perifraza (bunday parafrzalar kontekstsiz ham tinglovchiga va so'zlovchiga aniq va lo'nda tushunarli bo'ladi va uni avvaldan hech kim yartamaydi tilde avloddan avlodga o'tib kelayotgan parafrazalarga nisbatan an'anaviy perifraza deb aytiladi)

Oq kiyimdagi xoloskor (shifokor);

Gentlemen of the road (travelling salesmen) – Yo'lning janobi (sayyor sotuvchi)

An'anaviy tipdagi mos keladigan perifrazalar qavs ichidagi so'zlarning sinonimlaridir.

Tilshunos olim T.V.Liskova o'zining "Perifraza ma'nolarining tasnifi va denotativ-semantik bog'lanishlar jihati" nomli maqolasida parafraza denotativ semantik belgilar tamoyillariga ko'ra tasniflaydi²⁴

- Yer ostidagi ishchi xodimlar (metrodag kassir), qora dori(narkotik), ko'k sayyora (yer), buyuk daraxt (Yunoncha yong'oq daraxti);

- Sherlok Xolms (Artur Konan Doyl), Yerning birinchi kosmonavti (Yuliy Gagarin), hasadgo'y (Otello), Quyosh chiqar mamlakat (Yaponiya), tennis vatani (Angliya);

- Qalam ustasi (yozuvchi, shoir), qumdagi go'zallik (qumdan qal'alar)

²² Aleksandr Neverov « Toshkent — non shahri», 1968

²³ <http://www.literarydevices.com/periphrasis/>

²⁴ Lyskova. Classification of Periphrasis Meanings and the Aspect of Denotative-Semantic Correlations. 2010. p198

• Suzish mehmonxonasi (parovod), suv ustidagi uy (yaxta), suzuvchi muz tog'i (aysberg), havo transporti (samolyot)²⁵.

• Metonimik perifrazalar Dala malikasi (makkajo'xori), zangori ekran (televizor), moyqalam sohibi (rassom), salomatlik posboni (shifokor) charm qo'qop posboni (bokschi) oltin boshqoq (bug'doy).

• Metaforik perifrazalar gaz malikasi (Yuliya Timoshenko), opera malikasi (Irina Arhipova), temir qush (samolyot).

N. M. Gonzina va Yu, E. Myazina Galperinning an'anaviy tasnifini o'rganib, tahlil qildilar. Olimlarning fikricha, perifrazaning quyidagi turlari mavjud²⁶:

• Tasviriy. Galperin ta'kidlaganidek, majoziy perifraza frazeologik metaforalarga asoslanadi.

Tepa sochi tikka bo'lmoq – g'azablanmoq.

Og'zining tanobi qochmoq – sevinmoq.

Qovog'idan qor yo'g'moq – xafa bo'lmoq.

• Mantiq. Bu ibora almashtirilgan so'zning sinonimik versiyasidir. Ular shunday tasvirlaydilar: “Uzoq uzoqdagi qishloqlarimizga hali ham zangori olov yetib bormagan” Ushbu gapdagi perifraza “zangori olov” tabiiy gaz o'rniga kelayabdi.

V. P. Moskvini perifrazani nominativ adekvat sifatida ajratadi:²⁷

• Aniq - obyektning aniq, mavjud belgilarini borligi: *havoga ko'tarilmoq* (uchish);

• Noaniq – belgilari mavjud bo'lmagan xollarda: *hayvonlar shohi, ozodlik oroli*.

Tilshunoslik tadqiqotlarini baholaganda, perifrazalarni tasniflash umuman mantiqiy tamoyillarga asoslanadi. Dastlab maqsadli so'zlar o'rganilib, ularning perifrazalangan versiyasi tahlil qilindi. Perifraza stilistik qurilmasidan foydalanganda metonimiya, metafara va sinexdoka kabi stilistik o'xshatish qurilmalaridan foydalaniladi. Bir tomondan metafora yoki metonimiya, ikkinchi tomondan majoziy perifraza o'rtasida unchalik farq yo'q. Bu har doim so'z birikmasini nazarda tutuvchi perifrazaning tarkibiy jihati bo'linishga sabab bo'ladi.

Xulosa shuki, perifraza - bu ma'lum bir ma'noni uyg'otish uchun zarur bo'lgandan ko'ra ko'proq so'z ishlatadigan grammatik prinsip va nutq uslubi. Ba'zida perifraza ma'lum sabablarga ko'ra foydali bo'ladi, lekin ko'pincha ortiqcha deb hisoblanadi. Chunki suhbat qurish hamda gaplashishning asosiy maqsadi bu ma'lumotni tinglovchiga yetkazish hisoblanadi. Perifraza orqali gapirish esa bu maqsaddan uzoqlashtiradi va so'zlovchining asosiy xabarni yetkazishdan chalg'itishi mumkin. Perifrazaning ayrim misollar bu bosh miyasi shikastlanganda aniq va lo'nda gapni eslayolmay, uning o'rniga uzun va ko'p so'zlar ishtirok etgan gaplarni aytishiga o'xshab ketadi.

Perifrazaning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, yozuvchi va muallif perifrazalardan foydalanish jarayonida ushbu xususiyatlariga ham e'tiborli bo'lishi

²⁵ Moskvini V. P. Means of expression modern Russian speech.-.: 2006. - p376

²⁶ I. R. Galperin. “Stylistics”. 1981 p.169

²⁷ Lyskova. Classification of Periphrasis Meanings and the Aspect of Denotative-Semantic Correlations. 2010. p198

kearkligi ta'kidlanadi. Bunda perifraza stilistik qurilmaning xususiyatlariga haqiqiyliги, obyektivligi va aniqligi kabilarni kirgizsak xato ish bo'lmaydi.

REFERENCES:

1. Hujumova K. Kamola TARJIMASHUNOSLIKDAGI YANGI YONDASHUVLAR: TARJIMASHUNOSLIKDAGI YANGI YONDASHUVLAR //Журнал иностранных языков и лингвистики. – 2022. – Т. 4. – №. 4.
2. Allayorova S. Shahnoza TARIXIY SHAXSLAR NOMLARINING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI PERIFRAZDAGI IFODALANISHI: TARIXIY SHAXSLAR NOMLARINING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI PERIFRAZDAGI IFODALANISHI //Журнал иностранных языков и лингвистики. – 2022. – Т. 4. – №. 4.
3. Allayorova S. Shahnoza TARIXIY SHAXSLAR NOMLARINING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI PERIFRAZDAGI IFODALANISHI: TARIXIY SHAXSLAR NOMLARINING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI PERIFRAZDAGI IFODALANISHI //Журнал иностранных языков и лингвистики. – 2022. – Т. 4. – №. 4.
4. Primqulovna, Shahnoza Allayorova. "PERIFRAZANING TILISHUNOSLIKDAGI VAZIFALARI VA XUSUSIYATLARI." *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI* 2.18 (2023): 1192-1195.
5. Aleksandr Neverov « Toshkent — non shahri», 1968
6. I. R. Galperin. “Stylistics”. 1981 p.169
7. Lyskova. Classification of Periphrasis Meanings and the Aspect of Denotative-Semantic Correlations. 2010. p198
8. Moskvina V. P. Means of expression modern Russian speech.-.: 2006. - p376
9. [http://www.literarydevices.com/periphrasis\](http://www.literarydevices.com/periphrasis/)